

O'ZBEKISTON - MARKAZIY OSIYO: DO'STONA HAMKORLIK VA OCHIQLIK

Axmedov Jalol Tursunmuratovich

Jizzax politexnika institute “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi assistenti

Tolliboev Ma'ruf Ilxom o'g'li

Jizzax politexnika instituti 410-23 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun o'zaro hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi xususida so'z boradi. Bugun mintaqqa xalqlari oldida umumiy sa'i-harakatlar bilan Markaziy Osiyoni barqaror iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdek bosh maqsad turibdi. SHu nuqtai nazardan mintaqqa mamlakatlarining o'zaro hamkorligi ko'plab ekspertlar tomonidan tahlil qilib borilmoqda va o'zining dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: Markaziy Osyo, BMT, MDH, SHHT, TDT, Maslahat uchrashuvi, konstruktiv tashqi siyosat, tinchlik, barqarorlik, xavfsizlik, strategik sheriklik, “xalq diplomatiyasi”.

«*Biz Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasidagi murakkab vazifalarni izchil hal etib kelmoqdamiz. Bu yo'lda ko'plab to'siqlar olib tashlandi, fuqarolarimizning erkin harakatlanishi, faol madaniy va sayyohlik almashinuvni uchun sharoitlar yaratildi».*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev

Bugungi tezkor davrda dunyo shaddat bilan o'zgarib bormoqda. Bunday davrda Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun o'zaro hamkorlikni rivojlanish muhim ahamiyatga ega. Bugun mintaqqa xalqlari oldida umumiy sa'i-harakatlar bilan Markaziy Osiyoni barqaror iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdek bosh maqsad turibdi. Mintaqqa salohiyatini to'la ruyobga chiqarish, o'zaro ishonch va qo'shnichilik va hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yilning sentyabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72-assambleyasida Markaziy Osyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvini doimiy o'tkazish tashabbusi ilgari surilgan edi.

Bu hayotiy tashabbus qardosh xalklarimiz tomonidan qo'llab quvvatlandi va bir yil ichida amalga oshdi, hamda Maslahat uchrashuvlari muntazam o'tkazilib kelinmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ochiqlik va yangilanishlar, mamlakatning tashqi siyosatida ham yangi bosqichga ko'tarildi.

O'zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida, mintaqqa va global darajada faol tashqi siyosatni yo'lga qo'yib, xorijiy hamkorlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirmoqda. Bunday izchil, aniq va konstruktiv tashqi siyosatni xalqaro ekspertlar va kuzatuvchilar ham e'tirof etmoqda.

O'zbekiston hukumati mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlabgina qolmasdan, mintaqqa davlatlari va jahon hamjamiyati bilan hamkorlik aloqalarini davom ettirishga alohida etibor qaratib kelmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy vazifalaridan biri – o'z hududi atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish hisoblanadi. SHu nuqtai nazardan, Prezident SHavkat Mirziyoev qo'shnilarimiz – Markaziy Osyo davlatlari bilan

VOLUME-2, ISSUE-2

do'stona, yaqin qo'shnichilik va o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo'naliш sifatida belgilab berdi.

2023 yil – "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili" Davlat dasturi doirasida O'zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosiy faoliyatini, jumladan, Marziy Osiyo yo'naliшida ham izchil davom ettirdi.

Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan barcha sohalarda o'zaro do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga olib chiqish borasida tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyat bo'yicha davlat idoralari tomonidan bir qancha yuqori darajadagi tashriflar va turli tadbirlar amalga oshirildi. Bu jarayonda "xalq diplomatiyasi" amalda juda faol bo'lgani kuzatildi. Xususan, xalq vakillari – olimlar va rassomlar, madaniyat va din arboblari, ishbilarmonlar va yoshlar, turizm va sport tashkilotlari, jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar ishtirokida ko'plab turli uchrashuvlar, anjumanlar, videokonfrensiyalar va boshqa shu kabi tadbirlar o'tkazildi.

YUKorida ta'kidlaganimizdek, Prezident SH. Mirziyoev tashabbusi bilan muntazam o'tkazib kelinayotgan Markaziy Osiyodavlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari muhim o'rinn tutmoqda. Natijada mintaqadagi ikki va ko'p tomonlama hamkorlik darajasi yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, so'nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi yillik o'rtacha 50 foizdan ko'proqqa o'sdi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasining umumiш hajmi 6,6 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Jumladan, O'zbekistonning umumiш tashqi savdo aylanmasida Markaziy Osiyo davlatlarining ulushi yildan yilga oshib bormoqda hamda yangi yo'naliшlarda savdo-iqtisodiy munosabatlar yo'lda qo'yilmokda, bu esa o'z navbatida mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yordam bermoqda.

SHuningdek, 2020-2023 yillar davomida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan ochiq, konstruktiv, puxta o'ylangan va pragmatik siyosati natijasida suvdan foydalanish, O'zbekiston va qo'shi davlatlar o'rtasidagi davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, transport kommunikatsiyalaridan foydalanish, davlat chegaralarini kesib o'tish kabi murakkab va chalkash muammolarga echim topildi. Agar besholti yil oldin o'zbek-qirg'iz davlat chegarasini kuniga 300-400 kishi kesib o'tgan bo'lsa, global pandemiya ta'sirida joriy qilingan cheklowlarga qadar bu ko'rsatgich kuniga 30 ming kishiga etgan, O'zbekiston-Tojikiston chegarasini esa kuniga 20 ming fuqaro kesib o'tgan.

Qolaversa, 2020 yilning yanvar oyida O'zbekiston va Qozog'iston hukumatlari AQSH bilan hamkorlikda mintaqada iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga xizmat qiladigan loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun besh yil ichida kamida 1 mlrd. dollarga teng mablag'larini jalb etish maqsadida "Markaziy Osiyo investitsiyaviy sherikligi" tashabbusini yo'lda qo'ydi. "C5+1" platformasi orqali amalga oshirilayotgan ushbu tashabbus Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotini mustahkamlash va o'sishini ta'minlash maqsadida savdo-sotiqni oshirish, kompleks rivojlanishni rag'batlantirish va ko'p tomonlama aloqalarni chuqurlashtirish uchun barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanishga intiladi.

Jahon hamjamiyatida Markaziy Osiyoning ahamiyati va roli oshib borayotganini mintaqaga va yirik davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikning turli formatlari tashkil qilinayotganida ham ko'rishimiz mumkin.

So'nggi yillarda "Markaziy Osiyo – AQSH", "Markaziy Osiyo – Evropa ittifoqi", "Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi", "Markaziy Osiyo – Yaponiya" kabi muloqot formatlari qatoriga ohirgi yillarda "Markaziy Osiyo – Hindiston", "Markaziy Osiyo –

Xitoy” va “Markaziy Osiyo – Rossiya Federatsiyasi” singari yangi formatlar qo’shildi. Mazkur holat, birinchidan, mintaqadagi ijobiy o’zgarishlar natijasida yuzaga kelgan mutlaqo yangi muhit dunyoning etakchi davlatlari tomonidan Markaziy Osiyoga nisbatan e’tiborning oshganligini ko’rsatsa, ikkinchidan, chet el davatlari mintaqqa mamlakatlari bilan nafaqat ikki tomonlama hamkorlik doirasida, balki yagona mintaqaviy ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga ahamiyat qaratayotganidan dalolatdir.

SHu bilan birga, mintaqqa hamda boshqa davlat va xalqaro institutlar o’rtasida yangi formatlarning tuzilishi bu, Markaziy Osiyoning geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyati oshib borishiga, shuningdek, mintaqaga xalqaro munosabatlardagi yaxlit siyosiy-diplomatik sub’ekt sifatida qaralishiga olib kelmoqda.

Qayd etish joizki, Markaziy Osiyo davlatlarining barqarorligi va hamjihatligi, birinchidan, xalq farovonligiga, ikkinchidan, mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirib, xorijiy sherik davlatlar va investorlar bilan hamkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. O’zbekiston va mintaqqa davatlari o’rtasida shakllangan va yanada mustahkamlanib borayotgan yangi muhit mazkur maqsadlarga erishishga hamda o’zaroro siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Prezident SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida hamda 2024 yil “YOshlar va biznesni rivojlantirish yili” Davlat dasturida Markaziy Osiyo davatlari bilan yaqin qo’shnichilik aloqalarini mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratish nazarda tutilgan.

Xususan, joriy yil Davlat dasturida Markaziy Osiyo davatlari bilan munosabatlarni izchil davom ettirish chora-tadbirlar rejasida:

- O’zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ikki tomonlama va mintaqaviy aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;
- oliy va yuqori darajada o’zaro tashriflarni tashkil etish;
- “Xalq diplomatiyasi” mexanizmlaridan samarali foydalanish;
- yaxshi qo’shnichilik munosabatlarini mustahkamlash yo‘lidagi mavjud to’siqlarni birgalikda hal etish;
- savdo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tovar ayirboshlash hajmining o’sishi va hamkorlikni mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish;
- mintaqaning tranzit va logistika salohiyatidan samarali foydalanish va transport infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash;
- Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqalari (shu jumladan, chegara hududlari) o’rtasidagi hamkorlikni faollashtirish ko‘zda tutilgan.

Bundan tashqari, joriy yilda O’zbekiston Markaziy Osiyo davatlari bilan aloqalarini ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmlari, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi (MDH), SHanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT), Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashi (TTDHK), Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (EXHT) va boshqa tuzilmalar doirasida ham rivojlantirishni, bunda nafaqat siyosiy-diplomatik munosabatlar, balki iqtisodiy diplomatiya, parlamentlararo diplomatiya hamda xalq diplomatiyasini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Qolaversa, SHHTda O’zbekiston Respublikasining 2021–2022 yillarda raisligi davomida a’zo davatlardan xamkorligi doirasida ustuvor vazifa va asosiy tadbirlar belgilab olingan edi va izchil amalga oshirilib kelindi. SHHTda Rossiya, Xitoy, Pokiston va Hindiston qatori

Markaziy Osiyo davlatlaridan O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'izistonning a'zo davlatlar ekanligi, ushbu xalqaro tashkilot doirasida hamkorlikni jadallashtirish alohida ahamiyat kasb e'tishini ta'kidlash mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ochiq, pragmatik, chuqur o'ylangan va o'zaro manfaatli tashqi siyosat olib borish O'zbekiston tashqi siyosatining bosh ustuvor yo'naliishi bo'lib qolaveradi. Bu O'zbekiston Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan chegaradosh mintaqadagi yagona davlatligi, mamlakatdagi har qanday siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohadagi o'zgarishlarning bevosita mintaqaga ta'sir e'tishi hamda Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishi mintaqaning barcha davlatlari manfaatlariga xizmat qilishida namoyon bo'ladi. O'zbekistonning bugungi tashqi siyosati, xususan, yaxshi qo'shnichilik va pragmatik mintaqaviy siyosati davlatning xalqaro nufuzini oshirishga, hamda, Markaziy Osiyoning barqaror va ulkan imkoniyatlarga ega geosiyosiy hamkorlik makoniga aylanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 Farmoni, 7 fevral 2017 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, (yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan) Toshkent, 2023.
3. SH.M. Mirziyoev. "Markaziy Osiyoning tinchligi va farovonligi hamjihatligimizga bog'liq". Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining to'rtinchi maslahat uchrashuvidagi nutqi. Qirg'iziston, 21 iyul 2022, Siyosat.
4. SH.M. Mirziyoev. «Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida» xalqaro madaniy forumidagi nutqi. Xiva, 15 sentyabr, 2021 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 5-Maslahat uchrashuvidagi nutqi, Dushanbe, 14 sentyabr 2023 y.
6. Axmedova, Y. S. (2024). INVESTITSIYA LOYIHALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING MAZMUNI VA MOHIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(2), 521-524.
7. Axmedova, Y. S., & qizi Mamadiyorova, F. S. (2024). XODIMLARNI MOTIVATSİYALASHNING PSIXOLOGİK ASOSLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 611-614.
8. Ахмедова, Ю. С. (2023). Инвестициялар-Иқтисодиётни Модернизациялашнинг Бош Омили. *Barqarorlik Va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnali*, 3(1), 226-229.
9. Sunatullayevna, A. Y., & Jalol o'g'li, T. J. (2024, February). ZAMONAVIY MENEJER MODELINI YARATISH MASALASI HAQIDA. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 2, pp. 32-34).